



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SS ENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIM LARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDIT LARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQUV HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожихонов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УЧАСТИЯ БАНКОВ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	178
Юлдашева Шохсанам Дилмуродовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ЛОГИСТИКЕ (SMART LOGISTICS)	182
Мурадов Бахром Акрамжанович	
Машарипов Масуд Нуможонович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ КАК ДРАЙВЕР ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ТРАНСФЕРА: ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТНУЮ ПОЛИТИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	187
Тураева Сурия Тельмановна	
Мерзайтова Хилола Наби кизи	
TURIZM SALONIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	198
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKKA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN ALGORITMI	203
Narziyev Xayotjon Azamatovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKKA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN ALGORITMI

Narziyev Xayotjon Azamatovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada tijorat banklarida riskka yo'naltirilgan ichki auditni (RBIA) amalga oshirishning yetti bosqichli algoritmi taklif etilgan. Algoritm audit universini shakllantirishdan sifatni ta'minlash dasturiga bo'lgan to'liq siklni qamrab oladi hamda har bir bosqichni «Ichki auditning global standartlari», COSO ERM va ISO 31000 talablari bilan integratsiyalaydi. Riskni baholashning 5×5 matritsasi, to'rt pog'onali risk tasnifi va resurslarni taqsimlash nisbatlari asoslangan. O'zbekiston banklarida RBIA ni joriy etish darajasi rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlariga nisbatan pastroq ekani aniqlanib, algoritmnı bosqichma-bosqich tatbiq etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: riskka yo'naltirilgan ichki audit, audit universi, riskni baholash, risk xaritasi, audit rejasi, COSO ERM, ISO 31000, tijorat banklari, asosiy risk indikatorlari.

Abstract. This article proposes a seven-stage algorithm for implementing risk-based internal auditing (RBIA) in commercial banks. The algorithm covers the complete cycle, from developing the audit universe to establishing a quality assurance programme, and integrates each stage with the requirements of the Global Internal Audit Standards, COSO ERM, and ISO 31000. A 5×5 risk assessment matrix, a four-tier risk classification system, and resource allocation ratios are substantiated. The study identifies that the level of RBIA implementation in Uzbek banks remains lower than that observed in developed countries and develops practical recommendations for the phased implementation of the proposed algorithm.

Keywords: risk-based internal auditing, audit universe, risk assessment, risk map, audit plan, COSO ERM, ISO 31000, commercial banks, key risk indicators.

Аннотация. В статье предложен семиэтапный алгоритм внедрения риск-ориентированного внутреннего аудита (RBIA) в коммерческих банках. Алгоритм охватывает полный цикл — от формирования аудиторской вселенной до реализации программы обеспечения качества — и интегрирует каждый этап с требованиями Глобальных стандартов внутреннего аудита, COSO ERM и ISO 31000. Обоснованы матрица оценки рисков 5×5, четырёхуровневая классификация рисков и пропорции распределения ресурсов. Установлено, что уровень внедрения RBIA в банках Узбекистана остаётся ниже показателей развитых стран, и разработаны практические предложения по поэтапному внедрению предложенного алгоритма.

Ключевые слова: риск-ориентированный внутренний аудит, аудиторская вселенная, оценка рисков, карта рисков, план аудита, COSO ERM, ISO 31000, коммерческие банки, ключевые индикаторы риска.

KIRISH

Bank faoliyatida risklar tarkibining kengayib borishi — kredit va operatsion risklar bilan bir qatorda kiberxavfsizlik, uchinchi tomon, komplayens va reputatsion risklarning ahamiyati ortishi — ichki auditni rejalashtirish yondashuvlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Barcha obyektlarni bir xil davriylikda tekshirish audit resurslarining risk darajasiga mos taqsimlanishini to'liq ta'minlamasligi mumkin. Shu sababli xalqaro bank amaliyotida audit resurslarini risklar darajasiga mutanosib ravishda yo'naltirishga asoslangan riskka yo'naltirilgan ichki audit (Risk-Based Internal Auditing, RBIA) keng qo'llaniladigan yondashuvlardan biriga aylangan.

Mazkur masala O'zbekiston bank tizimi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, 2025-yil 9-yanvardan kuchga kirgan «Ichki auditning global standartlari» audit rejasini hujjatlashtirilgan risk-baholash natijalariga asoslashni nazarda tutadi (IIA, 2024). Bazel qo'mitasining BCBS-223 hujjatida ham bank ichki auditida riskka asoslangan yondashuvdan foydalanish tavsiya etiladi (BCBS, 2012). Ikkinchidan, milliy banklarda



RBIAni joriy etish jarayoni izchil rivojlanib bormoqda. Mavjud ekspert baholari milliy banklarda RBIAni joriy etish darajasi yetakchi xalqaro amaliyotga nisbatan rivojlantirish imkoniyatiga ega ekanini ko'rsatadi.

Amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, RBIAni joriy etishni rejalashtirayotgan banklar uchun yaxlit, bosqichma-bosqich va xalqaro standartlar talablari bilan o'zaro bog'langan amaliy yo'riqnomaga ehtiyoj mavjud. Global standartlar bajarilishi lozim bo'lgan talablarni belgilaydi, COSO ERM va ISO 31000 esa risk-menejment jarayonining umumiy tamoyillarini yoritadi. Shu bois ushbu talablarni bank ichki auditi jarayoniga moslashtiruvchi integratsiyalashgan yondashuvni ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi — tijorat banklarida RBIAni amalga oshirishning xalqaro standartlar bilan integratsiyalashgan yetti bosqichli algoritmini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari an'anaviy va riskka yo'naltirilgan rejalashtirish yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilish, algoritm bosqichlarining mazmuni, ketma-ketligi va me'yoriy bog'lanishlarini asoslash, risk-baholash matritsasi, risk tasnifi va resurs taqsimoti nisbatlarini ishlab chiqish hamda algoritmnini tatbiq etishning tashkiliy shartlarini belgilashdan iborat. Tadqiqot obyekti — O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining ichki audit faoliyati.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Riskka yo'naltirilgan ichki audit konsepsiyasi xorijiy adabiyotda XXI asr boshidan faol rivojlanib kelmoqda. Uning nazariy asosini ichki auditning risk-menejment tizimidagi roli to'g'risidagi tadqiqotlar tashkil etadi: ichki auditorlar o'z rolini risklarni mustaqil baholovchi sifatida anglashi, biroq bu anglash mamlakat va tashkilot kontekstiga qarab sezilarli farqlanishi ko'rsatilgan (Sarens va De Beelde, 2006). Ichki auditning korporativ risk-menejmentdagi ishtiroki chegaralari — baholash mumkin, ammo risklarni boshqarish mas'uliyatini olish mumkin emasligi — empirik jihatdan asoslangan (de Zwaan va boshq., 2011).

RBIAni joriy etish omillari alohida tadqiqot yo'nalishini tashkil etadi: tashkilot hajmi, tarmoq xususiyati va ichki audit xizmatining yetukligi riskka yo'naltirilgan yondashuvni qabul qilishning hal qiluvchi omillari ekani aniqlangan (Castanheira va boshq., 2010). Topshiriq darajasida RBIA samaradorligini oshirish — risk-baholashni audit dasturlari bilan bog'lash va resurslarni yuqori riskli testlarga yo'naltirish — orqali audit sifatini yaxshilash mumkinligi ko'rsatilgan (Coetzee va Lubbe, 2014). Tashkiliy drayverlar nuqtayi nazaridan risk-baholashga asoslangan rejalashtirish samaradorlikning muhim belgisi sifatida qayd etiladi (Arena va Azzone, 2009). Zamonaviy bosqichda RBIA raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashib bormoqda: ma'lumotlar tahlili risk-baholashning axborot asosini kengaytiradi (Betti va Sarens, 2021), ichki auditning istiqboldagi «boshqaruv bog'boni» roli esa aynan riskka asoslangan ustuvorliklar orqali amalga oshadi (Lenz va Jeppesen, 2022).

Me'yoriy-uslubiy asoslar uch hujjat atrofida shakllangan: «Ichki auditning global standartlari» audit rejasini risk-baholashga asoslash va uni kamida har yili yangilab borishni talab qiladi (IIA, 2024); COSO ERM risklarni strategiya va natijadorlik bilan integratsiyalashning besh komponentli ramkasini beradi (COSO, 2017); ISO 31000 esa risk-menejment jarayonini — kontekstni belgilash, risklarni identifikatsiyalash, tahlil, baholash va ishlov berish ketma-ketligini — universal tamoyillar darajasida belgilaydi (ISO, 2018).

Shu bilan birga, tahlil quyidagi ilmiy bo'shliqni ko'rsatadi: birinchidan, mavjud ishlarda RBIAning ayrim jihatlarini alohida-alohida o'rganilgan, ammo audit universidan sifatni ta'minlashgacha bo'lgan to'liq siklni qamrovchi yaxlit algoritm taklif etilmagan; ikkinchidan, IIA standartlari, COSO ERM va ISO 31000 talablarini bank auditi jarayonining aniq bosqichlariga «bog'lab» beruvchi integratsion model ishlab chiqilmagan; uchinchidan, O'zbekiston banklari uchun RBIAni joriy etishning milliy normativ baza — «Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi nizom [1] — bilan muvofiqlashtirilgan amaliy mexanizmi mavjud emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot loyihalash (konstruktiv) yo'nalishdagi sifat strategiyasiga asoslangan: maqsad mavjud holatni tavsiflashgina emas, balki amaliyotga tatbiq etiladigan artefakt — algoritmni yaratishdir. Algoritmni ishlab chiqishda jarayonli modellashdirish metodi qo'llanildi: ichki audit faoliyati o'zaro bog'liq bosqichlar ketma-ketligi sifatida dekompozitsiya qilindi, har bir bosqich uchun kirish ma'lumotlari, bajariladigan amallar, chiqish hujjatlari va me'yoriy bog'lanishlar belgilandi. Standartlarning qiyosiy kontent-tahlili orqali IIA global standartlari, COSO ERM va ISO 31000 talablari o'rtasidagi muvofiqlik nuqtalari aniqlanib, ular algoritm bosqichlariga joylashtirildi.

Risk-baholash matritsasi va tasniflash shkalasini kalibrlashda ekspert baholash metodidan foydalanildi: banklarning ichki audit xizmati rahbarlari va risk-menejment mutaxassislari ishtirokida ehtimollik va ta'sir shkalalari, pog'ona chegaralari hamda audit davriyligi nisbatlari muvofiqlashtirildi. Axborot bazasini «Ichki auditning global standartlari» (2024), COSO ERM (2017), ISO 31000:2018, BCBS-223, Markaziy bankning 3302-son Nizomi, banklarning audit rejalari va hisobotlari hamda mavzuga oid ilmiy nashrlar tashkil etdi. Natijalarning ishonchiligi algoritm elementlarining birlamchi me'yoriy manbalarga bevosita bog'langanligi orqali, amaliy aniqligi esa yetakchi banklardan birida o'tkazilgan pilot tatbiq natijalari orqali ta'minlandi.



TAHLIL VA NATIJALAR

RBIA joriyligining qiyosiy holati. Xalqaro amaliyot tahlili RBIA joriylik darajasida mamlakatlararo keskin tafovut mavjudligini ko'rsatadi (1-rasm). AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniya banklarida riskka yo'naltirilgan rejalashtirish amalda universal standartga aylangan bo'lsa, MDH hududida jarayon hali shakllanish bosqichida; O'zbekiston ko'rsatkichi ayrim mintaqaviy davlatlar ko'rsatkichlariga nisbatan pastroq darajada baholanadi. Mazkur tafovutga risklarni baholash amaliyotining yetarlicha rivojlanmagani, audit universining to'liq rasmiylashtirilmagani hamda risk-menejment tizimlari bilan axborot almashinuvi mexanizmlarini takomillashtirish zarurati ta'sir ko'rsatishi mumkin.



1-rasm. Mamlakatlar bo'yicha RBIA joriylik darajasi, foizda¹

An'anaviy va riskka yo'naltirilgan rejalashtirish yondashuvlarining tizimli qiyosi 1-jadvalda keltirilgan. Qiyos natijalari mazkur yondashuvlar o'rtasidagi farq nafaqat texnik, balki konseptual xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi: rejalashtirish barcha obyektlarni bir xil qamrab olishdan yuqori riskli yo'nalishlarni ustuvor va chuqurlashtirilgan tarzda tekshirishga o'tadi.

1-jadval

An'anaviy va riskka yo'naltirilgan rejalashtirishning qiyosiy tahlili²


Mezon	An'anaviy (siki asosidagi) yondashuv	Riskka yo'naltirilgan yondashuv (RBIA)
Rejalashtirish asosi	Barcha obyektlarni belgilangan davriylikda qamrash	Hujjatlashtirilgan risk-baholash natijalari
Audit davriyligi	Barcha obyektlar uchun bir xil	Risk darajasiga mutanosib tabaqalashgan
Resurslar taqsimoti	Ob'ektlar soniga proporsional	Risk-ball va salohiyatli zararga proporsional
Risk-menejment bilan aloqa	Epizodik, hisobot darajasida	Tizimli: yagona risk-taksonomiya va ma'lumot almashinuvi
Rejaning moslashuvchanligi	Yil davomida qat'iy	Dinamik: risk profili o'zgarganda qayta ko'riladi
Me'yoriy muvofiqlik	An'anaviy me'yoriy yondashuvlarga mos	IIA (2024), COSO ERM, ISO 31000, BCBS-223 talablariga mos

¹ Manba: ochiq xalqaro manbalar va muallifning ekspert umumlashtirishlari asosida tuzilgan.

² **Manba:** tegishli xalqaro standartlar va ilmiy manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Yetti bosqichli algoritmnining mazmuni. Tahlil natijalari asosida RBIAni amalga oshirishning to'liq siklini qamrab oluvchi yetti bosqichli algoritm ishlab chiqildi (2-rasm). Algoritmnining o'ziga xosligi shundaki, har bir bosqich uchta me'yoriy qatlam — IIA global standartlari, COSO ERM komponentlari va ISO 31000 jarayonlari — bilan bir vaqtda bog'langan; bu bank uchun alohida hujjatlar talablarini mustaqil ravishda o'zaro muvofiqlashtirish zaruratini kamaytiradi (2-jadval).



2-rasm. RBIAni amalga oshirishning xalqaro standartlar bilan integratsiyalashgan yetti bosqichli algoritmi³

2-jadval
Algoritm bosqichlarining me'yoriy bog'lanishlari va chiqish hujjatlari⁴

Bosqich	Me'yoriy bog'lanish	Chiqish hujjati
1. Audit universini shakllantirish	IIA global standartlari (audit rejasiga oid talablar); BCBS-223	Audit obyektlarining to'liq reyestri
2. Risk-baholash	COSO ERM («Natijadorlik» komponenti); ISO 31000 (risk tahlili)	5x5 matritsa bo'yicha baholangan risk-pasportlar
3. Risk-tasniflash	ISO 31000 (riskni baholash va darajalash)	To'rt pog'onali risk-xarita
4. Audit rejasini shakllantirish	IIA global standartlari; BCBS-223 (resurs yetarliligi)	Yillik riskka asoslangan audit rejasi
5. Audit topshiriqlarini bajarish	IIA global standartlari (topshiriqni rejalashtirish va o'tkazish)	Audit dasturlari, ish qog'ozlari, hisobotlar
6. Doimiy monitoring va KRI	COSO ERM («Ko'rib chiqish va qayta baholash»); IIA talablari	KRI paneli, oraliq risk-yangilanishlar
7. Sifatni ta'minlash (QAIP)	IIA global standartlari (sifatga oid talablar)	Yillik o'z-o'zini baholash, takomillashtirish rejasi

³ Manba: IIA (2024), BCBS (2012), COSO (2017) va ISO 31000:2018 asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁴ Manba: tegishli xalqaro standartlar va ilmiy manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Birinchi bosqichda bankning barcha auditga tortilishi mumkin bo'lgan obyektlari — tarkibiy bo'linmalar, biznes-jarayonlar, axborot tizimlari, mahsulotlar va loyihalar — yagona reyestrda jamlanadi; univers to'liq bo'lmasa, keyingi bosqichlarning aniqligi va ishonchligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ikkinchi bosqichda har bir obyekt ehtimollik va ta'sir shkalalari (har biri 1 dan 5 gacha ball) bo'yicha baholanadi; baholashda sonli ma'lumotlar (zarar statistikasi, aylanma hajmi, avvalgi topilmalar) ekspert mulohazalari bilan to'ldiriladi. Uchinchi bosqichda risk balli (ehtimollik $\times$ ta'sir) asosida obyektlar to'rt pog'onaga ajratiladi; ushbu tasnif audit davriyligi va resurs taqsimotini bevosita belgilaydi (3-jadval).


3-jadval

Risk-tasnifi pog'onalari, audit davriyligi va resurs taqsimoti⁵

Risk pog'onasi	Risk-ball (1–25)	Audit davriyligi	Audit resurslaridagi ulushi
Kritik	20–25	Har yili	35 %
Yuqori	12–19	12–18 oy	30 %
O'rta	6–11	24–36 oy	25 %
Past	1–5	3–5 yil yoki kameral monitoring	10 %

To'rtinchi bosqichda yillik reja risk-xarita asosida shakllantiriladi: rejaga kiritish mezoni obyektning ro'yxatdagi o'rni emas, risk balli hisoblanadi; resurslar 3-jadvaldagi nisbatlarda taqsimlanadi va kutilmagan topshiriqlar uchun zaxira (odatda umumiy fondning 10–15 foizi) ajratiladi. Beshinchi bosqichda har bir topshiriq o'z ichida ham riskka yo'naltiriladi: audit dasturi obyektning risk-pasportidagi eng yuqori baholangan risklarga mos testlarni ustuvor qiladi — bu yondashuv topshiriq darajasidagi samaradorlikni oshirishi empirik tasdiqlangan (Coetzee va Lubbe, 2014). Oltinchi bosqich algoritmnining o'zgaruvchan risk sharoitlariga moslashuvchanligini ta'minlaydi: asosiy risk indikatorlari (KRI) orqali oraliq davrlarda risk profili kuzatiladi va belgilangan chegaralar buzilganda reja qayta ko'rib chiqiladi. Yettinchi bosqich — sifatni ta'minlash va oshirish dasturi — algoritmni baholash va takomillashtirish mexanizmi hisoblanadi. Yillik o'z-o'zini baholash natijalari keyingi sikl uchun tuzatishlar manbaiga aylanadi va shu tariqa algoritmnining uzluksiz takomillashtirilishini ta'minlaydi.

Risk-baholash natijalarining amaliy tasviri. Algoritmnining ikkinchi-uchinchi bosqichlari natijasini vizuallashtirish uchun sakkizta risk kategoriyasi kesimidagi risk-radar shakli taklif etildi (3-rasm). Yetakchi banklardan birining ma'lumotlari asosida tuzilgan namunada kredit (4,5 ball), IT va kiberxavfsizlik (4,0) hamda AML/CFT (3,8) risklari eng yuqori baholangan — demak, yillik rejada aynan shu yo'nalishlar kritik va yuqori pog'onalarni egallab, resurslarning asosiy qismini olishi lozim. Mazkur vizuallashtirish audit qo'mitasi bilan muloqotda reja ustuvorliklarini asoslashga yordam beradi.

3-rasm. Sakkiz risk kategoriyasi bo'yicha risk-radar, 5 balli shkalada⁶

5 **Manba:** tegishli xalqaro standartlar va ilmiy manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

6 **Manba:** tijorat banklaridan birining umumlashtirilgan ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Algoritmni tatbiq etishning tashkiliy shartlari sifatida quyidagilar belgilandi: audit qo'mitasining metodikani tasdiqlashi va risk-ishtaha parametrlarini belgilashi; risk-menejment bo'linmasi bilan yagona risk-taksonomiyani kelishish; ma'lumotlar manbalariga (zararlar bazasi, hisobot tizimlari) auditning bevosita kirishini ta'minlash; xodimlarni risk-baholash metodikasiga o'qitish. Yetakchi banklardan birida o'tkazilgan pilot tatbiq algoritmnining amaliyotda qo'llash imkoniyati mavjudligini ko'rsatdi: bir sikl davomida audit resurslarining yuqori va kritik pog'onadagi obyektlarga yo'naltirilgan ulushi sezilarli oshib, rejadan tashqari so'rovlarga javob tezligi yaxshilandi.

Muhokama shuni ko'rsatadiki, taklif etilgan algoritm adabiyotdagi uch oqimni — ichki auditning ERMdagi roli (Sarens va De Beelde, 2006; de Zwaan va boshq., 2011), qabul qilish omillari (Castanheira va boshq., 2010) va topshiriq darajasidagi samaradorlik (Coetzee va Lubbe, 2014) — yagona amaliy konstruksiyada birlashtiradi. Standartlararo integratsiya algoritmnining muhim ilmiy-amaliy afzalligi hisoblanadi: bank IIA talabini bajarayotganda ayni paytda COSO ERM va ISO 31000 mantig'iga ham mos harakat qiladi, bu esa hujjatlar takrorlanishini kamaytiradi va nazorat organlariga taqdim etiladigan asoslantiruvchi hujjatlarning aniqligi va izchilligini oshiradi (IIA, 2024; COSO, 2017; ISO, 2018). Algoritmning QAIP bosqichi orqali u samaradorlikni o'lchash tizimlari bilan tabiiy bog'lanadi va keyingi tadqiqotlarda uzluksiz audit texnologiyalari bilan kengaytirilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari bo'yicha quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

An'anaviy sikl asosidagi rejalashtirish bank risklari tarkibining hozirgi murakkab sharoitida audit resurslarini risk darajasiga mutanosib taqsimlash imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Shu sababli RBIAg'a o'tish zamonaviy me'yoriy talablar va iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi.

RBIAni amalga oshirishning yetti bosqichli algoritmi ishlab chiqildi: audit universini shakllantirish → risk-baholash → risk-tasniflash → audit rejasini shakllantirish → topshiriqlarni bajarish → doimiy monitoring va KRI → sifatni ta'minlash dasturi. Algoritmning har bir bosqichi IIA global standartlari, COSO ERM va ISO 31000 talablari bilan integratsiyalangan uning asosiy ilmiy-amaliy yangiligidir.

Risk-baholashning 5×5 matritsasi va to'rt pog'onali tasnif shkalasi (kritik — 20–25, yuqori — 12–19, o'rta — 6–11, past — 1–5 ball) hamda ularga mos audit davriyligi va resurs taqsimoti nisbatlari (35/30/25/10 foiz) asoslandi.

Tijorat banklariga algoritmni bosqichma-bosqich joriy etish tavsiya qilinadi: dastlab audit universi va risk-taksonomiyani rasmiylashtirish, so'ng pilot risk-baholash va riskka asoslangan reja, nihoyat KRI monitoringi va QAIP konturini ishga tushirish; jarayonni audit qo'mitasi nazorati ostida amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Markaziy bankka 3302-son Nizomda audit rejasini hujjatlashtirilgan risk-baholashga asoslash talabini aniq mustahkamlash va ushbu maqolada taklif etilgan algoritmni uslubiy tavsiyanoma asosi sifatida ko'rib chiqish taklif etiladi.

Kelgusi tadqiqotlar yo'nalishlari sifatida risk-baholash bosqichini ma'lumotlar tahlili va mashinali o'qitish vositalari bilan avtomatlashtirish hamda algoritm tatbiqining bank moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'sirini ekonometrik baholash belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 16-apreldagi 3/2-son qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 7-mayda 3302-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-5431666> (murojaat sanasi: 21.07.2026).
2. 2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi — LexUZ. — URL: <https://lex.uz/docs/-4811025> (murojaat sanasi: 21.07.2026).
3. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi — LexUZ. — URL: <https://lex.uz/docs/-5841063> (murojaat sanasi: 21.07.2026).
4. Auditorlik faoliyati to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi O'RQ-677-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi — LexUZ. — URL: <https://lex.uz/docs/-5307886> (murojaat sanasi: 21.07.2026).



5. Anderson, U. L. Internal Auditing: Assurance & Advisory Services / U. L. Anderson, M. J. Head, S. Ramamoorti, C. Riddle, M. Salamasick, P. J. Sobel. — 4th ed. — Lake Mary, FL: Internal Audit Foundation, 2017. — 485 p.
6. Arena, M. Identifying Organizational Drivers of Internal Audit Effectiveness / M. Arena, G. Azzone // International Journal of Auditing. — 2009. — Vol. 13, No. 1. — P. 43–60. — DOI: 10.1111/j.1099-1123.2008.00392.x.
7. Basel Committee on Banking Supervision. The Internal Audit Function in Banks. BCBS-223. — Basel: Bank for International Settlements, 2012. — 29 p.
8. Betti, N. Understanding the Internal Audit Function in a Digitalised Business Environment / N. Betti, G. Sarens // Journal of Accounting & Organizational Change. — 2021. — Vol. 17, No. 2. — P. 197–216. — DOI: 10.1108/JAOC-11-2019-0114.
9. Castanheira, N. Factors Associated with the Adoption of Risk-Based Internal Auditing / N. Castanheira, L. L. Rodrigues, R. Craig // Managerial Auditing Journal. — 2010. — Vol. 25, No. 1. — P. 79–98. — DOI: 10.1108/02686901011007315.
10. Coetzee, P. Improving the Efficiency and Effectiveness of Risk-Based Internal Audit Engagements / P. Coetzee, D. Lubbe // International Journal of Auditing. — 2014. — Vol. 18, No. 2. — P. 115–125. — DOI: 10.1111/ijau.12016.
11. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission. Enterprise Risk Management — Integrating with Strategy and Performance. — New York: COSO, 2017.
12. De Zwaan, L. Internal Audit Involvement in Enterprise Risk Management / L. de Zwaan, J. Stewart, N. Subramaniam // Managerial Auditing Journal. — 2011. — Vol. 26, No. 7. — P. 586–604. — DOI: 10.1108/02686901111151323.
13. Institute of Internal Auditors. 2023 North American Pulse of Internal Audit: Benchmarks for Internal Audit Leaders. — Lake Mary, FL: Internal Audit Foundation, 2023.
14. Institute of Internal Auditors. Global Internal Audit Standards. — Lake Mary, FL: The Institute of Internal Auditors, 2024. — 119 p.
15. International Organization for Standardization. ISO 31000:2018. Risk Management — Guidelines. — 2nd ed. — Geneva: ISO, 2018. — 16 p.
16. Lenz, R. The Future of Internal Auditing: Gardener of Governance / R. Lenz, K. K. Jeppesen // EDPACS: The EDP Audit, Control, and Security Newsletter. — 2022. — Vol. 66, No. 5. — P. 1–21. — DOI: 10.1080/07366981.2022.2036314.
17. Sarens, G. Internal Auditors' Perception about Their Role in Risk Management: A Comparison between US and Belgian Companies / G. Sarens, I. De Beelde // Managerial Auditing Journal. — 2006. — Vol. 21, No. 1. — P. 63–80. — DOI: 10.1108/02686900610634766.
18. Tuychiyev, A. Audit: darslik / A. Tuychiyev, I. Qo'ziyev, A. Avloqulov, I. Sherimbetov, I. Avazov. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. — 530 b.
19. Подольский, В. И. Аудит: учебник для студентов вузов / В. И. Подольский, А. А. Савин, Л. В. Сотникова [и др.]; под ред. В. И. Подольского. — 6-е изд., перераб. и доп. — Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2017. — 688 с. — ISBN 978-5-238-02777-7.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>